

**“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**BEHBUDIYNING “OYNA” JURNALI TAHRIRIYATI STRUKTURASINI
TASHKIL ETISHI VA JAMOA BILAN ISHLASHDAGI MUHARRIRLIK
MAHORATI**

Abdukarimova Maftuna
O‘zJOKU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik matbuotida tahririyatlarni tashkil qilish, uni boshqarish va muharrirlik mahorati Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyna” jurnali misolida o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Shuningdek, Behbudiyning tahririyatni tashkil qilishdagi uslublari va xodimlar bilan ishslash, ularni ishga qabul qilish strategiyalarini o‘rganish orqali bugungi kundagi zamonaviy tahririyatlarning dastlabki ko‘rinishlari ham qiyoslanadi. Bu orqali esa o‘sha davrga xos nazariy bilimlar bilan bir qatorda sohaga doir amaliy tajribalarni ham bugungi kunga tatbiq etish, o‘sha davrdagi kabi hozirgi zamon matbuotiga salmoqli media mahsulotlarini taqdim qilish va yangidan-yangi media tahririyatlarni tashkil etish yoinki tahririyatlarga yangi tajribalarni joriy qilish mumkin. Chunki o‘sha davrdagi nafaqat mavzular balkim jamoani shakllantirish ham bugungi kunga qadar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Kalit so‘zlar: jadidlar, jadidchilik matbuoti, Mahmudxo‘ja Behbudi, “Oyna” jurnali, tahririyat, media, media menejment

Annotation: This article explores and analyzes the skills of organizing, managing and editing editorial offices in the Jadidist press using the example of the magazine “Oyna” by Mahmudkhoja Behbudi. It also compares Behbudi’s methods in organizing editorial offices and the early manifestations of modern editorial work today by examining strategies for working with and hiring employees. Thus, along with the theoretical knowledge typical of that time, it is possible to apply practical experience in this field, provide important media products for the modern press, as at that time, and create new media editorial offices or introduce new experience in the editorial office. Because not only the themes of that time, but also collective formation have not lost their relevance to this day.

Key words: jadid, jadidist press, Mahmudkhoja Behbudi, “Oyna”, editorial, media, media management

Jadidchilik matbuoti Turkiston xususan, O‘zbekistonning bugungi kundagi matbuoti tarixining eng oltin silsilasi hisoblanadi. Chunki o‘sha davrda jadid namoyondalari tomonidan matbuotda e‘lon qilingan mavzular bugungi kunda ham o‘zining dolzarbli va ahamiyatini aslo yo‘qotmagan. Ikkinchchi tomonidan esa ana shunday qiyin va o‘ta qaltis bo‘lgan davrda tahririyat tashkil qilish, gazeta va jurnallarni nashr qilish o‘sha davrdagi eng katta jasorat va o‘ziga xos mahoratni talab qiladigan vazifa sifatida baholanadi.

Bunday ziddiyatlidagi davrda xalqqa yangi qon bo‘lib kirish, eski tizimni o‘zgartirish, mahalliy aholini uyg‘otish uchun esa jadidlar ushbu zamonda hali xalqimiz anglamagan matbuotning kuchidan to‘g‘ri foydalanishga qaror qilishgan. Va bu qarorlar ibtidosi sifatida “Tajrimon”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Turkiston gazeti”, “Tujjor”, “Osiyo”, “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Tirik so‘z”,

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Najot”, “Turon”, “Kengash”, “Ulug‘ Turkiston”, “Yurt”, “Hurriyat” keyinchalik esa biz sevgan “Mushtum” matbuot yuzini ko’rdi.

Bu nashrlar ichida esa xalqqa ushbu davr uchun o‘z ahvoliga ko‘zgu tutish maqsadida o‘z nomiga mos “Oyna” jurnali Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan tashkil qilindi. Nashrni tashkil qilishda xalq ma’rifatparvarga Misr, Arabiston va Turkiyada bo‘lib, u yerda yangi bilimlar va matbuotning o‘sha davr uchun taraqqiy etishga ko‘maklashgan tajribalarini o‘zlashtirishi juda qo‘l keldi. Shu bilan bir qatorda Behbudiy o‘sha vaqtida tahririylar tashkil qilishda va uni boshqarishda yetakchi bo‘lgan Qozon va Ufadagi tatar ziyolilaridan yangi usul maktablariga doir bilimlarni o‘zlashtirishga kirishdi va xususan, tatar ma’rifatparvari bo‘lgan Ismoil Gasprali va u tashkil qilgan “Tarjumon” gazetasi uni haqiqiy nashr qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi bilimlarni shakllantirdi.[1.145] Bir necha shu kabi nashrlardan o‘rgangan bilim va tajribalariga asoslangan holda Mahmudxo‘ja Behbudiy 1912-1913 yillarda “Oyna” jurnali bilan bir vaqtida “Samarqand” gazetasiga asos soladi.

“Oyna” jurnali 1913-yilning 20-avgustda nashr qilingan ilk o‘zbek tilidagi jurnal hisoblanadi. Bundan tashqari nashrning nomlanishi muqovada – arab, o‘zbek, fors va rus tillarida yozilgan: “Mir‘ot”, “Ko‘zgu”, “Oyna” va “Zerkalo” shakllari bo‘lgan. Jurnal har hafta 400-600 nusxada chop etilgan.[2]

Tahririylar tuzilishi esa bugungi tahririylardan tubdan farq qilmaydi boshqacha qilib aytganda esa hozirgi kun matbuoti aynan o‘sha davrdagi nashriyotlardan andoza olgan deyish mumkin. Chunki nashriyotning asosiy javobgari muharrir bo‘lib undan so‘ng muharrir yordamchisi – muovin bo‘lib bular tahririylarning rahbariyat qismini tashkil etgan bo‘lsa undan keyin vazifalariga ko‘ra bir qancha bo‘limlar ham tashkil etilgan. Xususan, xodimlar bilan ishslash bo‘limi – “отдел кадров” tahririylarning doimiy xodimlaridan tashqari mustaqil ravishda o‘z maqolalari, felyeton va hikoyalarini beruvchi xodimlar bilan ham ishlagan. Bular hozirgi kundagi “freelancer” larga to‘g‘ri keladi. Undan so‘ng esa ijodiy faoliyatni tashkil qilish maqsadida maqolalar va xabarlar bir necha ruknlarda janriga qarab qabul qilingan va ularni qabul qilib olish uchun alohida ma’sullar tayin etilgan. Shunga ko‘ra materiallar “Bayoni hol” (tanqidiy-tahliliy materiallar), “Samarqand xabarlari”(mahalliy yangiliklar), “Axbori jahon”(jahon yangiliklari) nomli doimiy ruknlar ostida chop etilgan. Jurnalning bir qancha xorijiy Sharq mamlakatlarida ham muxlislari bo‘lgan.[2]

Hozirgi kunga qadar dolzarb bo‘lgan nashrning yashab qolishi masalasi u davr uchun ham begona bo‘lmagan va har bir tahririylar bu borada ma’lum doiradagi harakatlar strategiyasi va choralarni ishlab chiqqan. Buni qarangki, biz bugungi kunda zamonaviy tilda “marketing bo‘limi” deya ataydigan bo‘lim u vaqtarda ham

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

nashriyotda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, joiz bo‘lsa bugungi kundagi tahririyat yuragining dastlabki ko‘rinishi deya atash mumkin. “Oyna” jurnali tahririyating marketing bo‘limi ham nashr faoliyati uchun bugungi kunda nima ishlar amalga oshirilsa o‘sha vazifalarni ishlab chiqqan va jurnalda har haftada “Reklama” nomli doimiy ruknda mahalliy aholi orasidagi tujjorlik(savdogarlik), ta‘lim va mahalliy ishlab chiqarishga doir reklamalar berib borilgan. Bu rukn uchun esa juda katta jamoa ishlab, jurnalning har sonida boshqa ruknlar bilan barovar chop etishga qattiq kirishganlar. Nashrning bir necha tilda nashr etilishi esa uning tirajlarining yaxshi sotilishiga asos bo‘lgan. “Oyna“ o‘qish uchun qulay formatda edi va an‘anaviy arab yozuviga asoslangan. Oxirgi sahifalari rus tilidagi reklama va ma‘lumotlar uchun ajratilgan.

Jurnalning birinchi sonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, turt til lozim“ nomli maqolasi bosilgan. Behbudiy noshirlik, muharrirlik vazifalarini ado etish bilan birga, jurnalning qariyb har bir sonida dolzarb mavzulardagi sermazmun, sara maqolalar bilan ko‘rinib turgan. Behbudiy Samarqand viloyati harbiy gubernatoriga yozgan arizasida jurnalni o‘zbek, tojik va rus tilida chiqarishga izn so‘ragan. Lekin mustamlakachilar tilida faqat e’lonlar berilgan. Aftidan, ruschani ham qo‘shgani Behbudiyning arzi ijobjiy hal bo‘lishida muhim rol o‘ynagan. M. Behbudiy va uning jadid safdoshlari Turkistonning milliy va diniy zaminda taraqqiy etmog‘ini ko‘zlaganlar. Shu bois o‘lka taraqqiyotining jadidlar nazarda tutgan bu ikki asosiy yo‘nalishiga daxldor muammolar “Oyna“ jurnalining ham diqqat markazida turgan. Jurnalning 47-sonidan boshlab foto illyustratsiyalar sahifalarda aks eta boshlagan. Ushbu fotolarning ko‘pchiligini Samarqand shahrining me’moriy yodgorliklari, M.Behbudiy sayohati davomida to‘xtagan joylar tashkil qilgan. Rasmlar orasida Ismoil Gasprinskiyning bir qancha fotosuratlari ham bo‘lgan. Behbudiy arab mamlakatlariga qilgan sayohat xotiralarini “Xotiralar“ nomi ostida jurnalning 1914-yilgi sonlarida izma-iz nashr ettirib borgan.

Nashrning har haftalik sonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zidan tashqari o‘sha davr jadidlarining maqolalari, felyeton va xabarları chop etib borilib, ular nashrdan ma‘lum miqdordagi gonararni ham olib turishar edi. Biz sevib o‘qiydigan har so‘zida achchiq haqiqati qaynab turadigan Abdulla Qodiriy ham “Julqunboy” taxallusi ostida o‘z felyeton va maqolalarini nashr ettirgan va uning materiallari chiqqan nashr qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketgan.

Bundan tashqari nashrda Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Hoji Muin, Akobir Shomansur, Muhammad Sa‘id, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadriddin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzoda qalamiga mansub maqolalar, she’rlar “Oyina”ning ommalashuviga sabab bo‘ldi. Nashr yosh qalamkashlar, bo‘lg‘usi adib va

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ma’rifatparvarlar uchun tajriba maydoni vazifasini ham o’tadi. Behbudiylar esa haqiqiy muharrir sifatida yosh ijodkorlarni doimiy ravishda nashrga jalgan qildi. [3]

Biroq shunga qaramay tahririylar to‘la ma’noda mustaqil emas edi. Behbudiylar tomonidan nashr faoliyatini uchun shaxsiy hisobdan harajat qilinsa-da, davlat tuzumi nashrni doimiy ravishda qistovlar va nazoratda ushlagan deya qaraladi.

Bunga O‘zbekiston Markaziy davlat arxivida bizga dalil bo‘lgulik ko‘pgina hujjatlar bor. Masalan, Turkiston harbiy okrugining shtab boshlig‘i imzosi bilan Samarqand viloyat harbiy gubernatoriga 1914-yil 19-avgust kuni 100-raqamli xat yuborilgan. Mazmuni shundan iboratki, birinchi jahon urushi davrida “mahalliy matbuotda Rossiya manfaatiga zid maqolalar paydo bo‘lishi mumkinligi bois” Turkiston harbiy senzurasi Samarqanddagi nashrlarni nazorat qilib turishni shtabs-kapitan Otayevga topshiradi. “Oyna” jurnali korrekturasi uchun ko‘chirma (оттиск)dan jurnal bosmadan chiqishiga ikki kun qolguncha yuborilishi bosh muharrir zimmasiga yuklatiladi. Behbudiyni harbiy okrugga chaqirtirib, ushbu “o‘ta maxfiy xat” ostiga “O‘qidim va ma’lumot uchun qabul qildim”, deya imzo chektirishgan.

Senzuraning kuchayishiga Behbudiyning o‘sha yili yana bir bor Sharq mamlakatlariiga sayohat qilib qaytgani ham sabab bo‘lgan, ehtimol. U xorijga ketishdan avval “Oyna” muharrirligini vaqtincha Saidrizo Alizodaga topshiradi. Behbudiyning muharrirlikni topshirgani va Alizodaning qabul qilgani haqida 1914-yil 27-aprelda yozilgan ariza ham O‘zbekiston Markaziy davlat arxivida saqlanmoqda. Harbiy gubernator Saidrizo Alizodaga 1914-yil 3-may kuni guvohnoma bergen.[3]

“Oyna” jurnali muharriri va noshirini turli yo’llar bilan ta’qib qiladilar. Masalan, Turkistondagi urf-odatlar, jadid maktablari, o‘zgarishlarni o‘rganayotgan missioner G.Andreyev Behbudiylar va uning “Oyna”si haqida ketma-ket ikkita maqola yozadi. Birinchisida muharrir bilan suhbat qurib, fikrlarini beradi, lekin past nazar bilan qaragani “турецкий таргаш” deganidan yaqqol bilinadi. Ikkinci maqolasida esa “Oyna”ning 1915-yil 1 (53)-sonini o‘z nuqtayi nazari, ya’ni mustamlakachi sifatida batafsil sharhlaydi, jurnal sahifalari “zerikarli” maqolalarga to‘la ekanini aytadi. Qisqasi, muallif Behbudiyning publisistik hamda muharrirlik faoliyatiga noxolis yondashgan. Missionerdan o‘zgacha muomala kutish ham qiyin edi, chunki ular o‘zlarini Turkistonga “madaniyat keltirgan” insonlarmiz deb o‘ylashardi. Mana shu qarash boshqacha libosda sovet davri adabiyotlariga ham ko‘chib o‘tdi.

“Oyna” jurnali mazmuni milliy manfaatlar himoyasiga asoslangan. Dastlabki sonidan boshlangan Turkiston tarixiga, bobolar merosiga alohida e’tibor oxirgi sonlarigacha sezilib turadi. Masalan, 1-sonning birinchi sahifasida Sherdor madrasasining viqorli suvrati va “Turkiston” sarlavhali bosh maqola va undan so‘ng

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Sherdor madrasasining tarixi berilgan. Keyingi sonda esa “Ulug‘bek rasadxonasi” haqida muharrir maqolasi e’lon qilingan. Uchinchi sonda ushbu maqolaning davomi va rasadxonaning suvrati bosilgan. Shunga o‘xhash materiallar davomiy chop etilganki, bu mushtariyda milliy g‘ururni kuchaytirib, tarixiy xotirani tiklashga xizmat qilgan.

Tahririyat tarkibida nashrning ertangi kuni saqlab qolish maqsadida bosh muharrirdan tortib, tarjimon-u havaskor ijodkorlar zimdan ter to‘kkan bo‘lsa-da, nashr 68 ta son chiqqandan so‘ng 1915-yil 15-iyunga qadar o‘z faoliyatini olib boradi xolos.

Xulosa: Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ishbilarmon va tajribali muharriri sifatida “Oyna” jurnalini tashkil qilishda davr talabini o‘rganish bilan bir qatorda, tahririyatga yangi tendensiyalarni ham taqdim etdi. Bugungi kundagi nashrlarning katta qismi ana shu an’analarga sodiq qolgan holda ularni zamonga mos holda davom ettirmoqda. Xususan, shtatda bo‘limgan muxbirlar bilan ishslash, gazetani o‘zbek va rus tilida chop ettirish(davlat nashrlarining ayrimlarida) bugunga qadar saqlanib qolgan. Biroq Behbudiy aytganidek bizga “Ikki emas, to‘rt til lozim” dir...

Bu hali Behbudiy muharrirlilik mahoratining bir qismi xolos. Hali oldinda uning nafaqat mahalliy balkim Sharqiy hamda Rossiya hududlarida o‘qilganligi ham keltiriladi. Shuningdek, Behbudiy o‘z tahririyatiga boshqa xorijiy, xususan, Tatariston matbuoti namoyondalari bilan hamkorlik qilgani ham keltiriladi. Bu esa uning nihoyatda kuchli strateg-muharrir sifatida namoyon bo‘lganini ifodalaydi. Bundan tashqari uning uslubida Ismoil Gaspirinskiyning nafasi sezilib turardi. Behbudiy nashrdan tushgan pullarning bir qismini hayr-ehson ishlariga ham sarflardi. Shunday dalillardan biri “Tarjuman” tahririyatiga Peterburgda qurilayotgan masjid va Samarada yangi ochilgan qizlar uchun maktab foydasiga bir oz pul yuboradi.[1.145]

Bundan ko‘rinib turibdiki, Mahmudxo‘ja tahririyatni nafaqat ijodiy, balkim iqtisodiy jihatdan ham to‘g‘ri boshqara olgan.